

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

PYAGAY GRIGORIY BORISOVICH

**AKTINIK KERATOZNING TURLI SHAKLLARINING KLINIK-
MORFOLOGIK, DERMATOSKOPIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIY
XUSUSIYATLARI**

14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

FARG'ONA – 2024

Tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора медицинских наук (DSc)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Medical Science (DSc)

Pyagay Grigoriy Borisovich

Aktinik keratozning turli shakllarining klinik-morfologik, dermatoskopik va immunogistokimyoviy xususiyatlari 3

Пягай Григорий Борисович

Клинико-морфологическая, дерматоскопическая и иммуногистохимическая характеристика различных форм актинического кератоза 29

Pyagay Grigoriy Borisovich

Clinical-morphological, dermatoscopic and immunohistochemical characteristics of various forms of actinic keratosis 57

Nashr etilgan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 61

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.TIB.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

PYAGAY GRIGORIY BORISOVICH

**AKTINIK KERATOZNING TURLI SHAKLLARINING KLINIK-
MORFOLOGIK, DERMATOSKOPIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIIY
XUSUSIYATLARI**

14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

FARG'ONA – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.2-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi. DSc/Tib693.

Dissertatsiya Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tashpmi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sidikov Akmal Abdukaxarovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Vaisov Adhamjon Shavkatovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Nishanov Doniyor Anarbaevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Oxlopkov Vitaliy Aleksandrovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Respublika ixtisoslashtirilgan
Dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-
amaliy tibbiyot markazi**

Dissertatsiyasi himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzurida DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli Ilmiy Kengashining "___" _____ 2024 _____ soat ___dagi majlisida bulib u'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bogishamol ko'chasi, 223. Tel / faks: (+99871) 262-33-14; elektron pochta: mail@tashpmi.uz).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bogishamol ko'chasi, 223. Tel/faks: (+99871) 262-33-14).

Dissertatsiya avtoreferati yuborildi 2024 yil "___" _____ kuni tarqatildi. (2024 yil "___" _____) dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Alimov A.V.

ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

Nabiev T.A.

ilmiy darajalar berish ilmiy kengashining ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari doktori

Axmedova D.I.

ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiya (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. JSST ma'lumotlariga ko'ra, saraton kasalliklarining barqaror o'sishi hozirgi vaqtda jiddiy tibbiy va ijtimoiy muammodir¹. Shu bilan birga, jahon ma'lumotlarga ko'ra, melanoma bo'lmagan teri saratoni onkologik tuzilishda 5-o'rinni egallaydi. Teri yuzasida ham saratonoldi, ham yomon sifatli o'smalar ko'pincha tananing ochiq joylarida paydo bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan kasalliklar chastotasi 10% dan 15% gacha o'zgarib turadi². Ularning tashxisoti, asosan erta bosqichlarda katta qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday nozologik birliklar bilan ilg'or bosqichlarda tibbiyot muassasalariga murojaat qilishining sababi yallig'langan dermatoz kechishi va klinik namoyon bo'lishi bo'yicha juda o'xshash bo'lgan ko'plab saratonoldi va saraton kasalliklari bilan bog'liq. Natijada, kech qo'yilan tashxis muvaffaqiyatli davolashda ham asoratlar, tashrihlarni ko'tara olmaydigan o'smalar va tana suvsizlanishining rivojlanishiga olib keladi. Birlamchi va ixtisoslashtirilgan bo'g'in shifokorlarining vazifalari ularni erta tashxislash bo'lib, shuningdek, har qanday bemorni tekshirishda onkologik xushyorlik zarur hisoblanadi. Dermatoonkologiyada eng ko'p uchraydigan dolzarb, doim uchraydigan saratonoldi kasallik aktinik keratoz (AK) sanaladi. Uni o'rganishda terining yassi hujayrali saratoni (YaHS), har xil shakllarining qiyosiy (differensial) tashxisoti, kasallik bosqichini aniqlash bo'yicha dermatoskopik mezonlarni ishlab chiqish, uning doim uchraydian shakli hamda yangi biomarkerlarni izlash masalalari hali ham hal qilinmagan, bu yassi hujayrali saratonga o'tishi mumkinmi yoki yo'q, degan savolga javob olishga imkon beradi. Hal qilinmagan va qiziqish uyg'otgan masalalarga javob topish mazkur tadqiqotni oldindan belgilab berdi.

Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini tubdan oshirish, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bog'liqlikda " mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati, samaradorligi va mashhurligini oshirish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini saqlash va tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish yo'li bilan kasallikning oldini olish, tashxisot va davolashning yuqori texnologik metodlarini tatbiq etish, patronaj xizmati hamda dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun aholi orasida o'z vaqtida onkologik kasalliklar xavf omillarini aniqlash va hayot sifatini yaxshilash, nogironlik darajasini kamaytirishga sabab bo'luvchi saratonoldi kasalliklarni aniqlash hamda ularni keyinchalik adekvat davolashga qaratilgan tadbirlarini amalga oshirish kerak.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 7 -dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks choralar to'g'risida"gi 5590-sonli Farmoni, 2021- yil 25 -maydagi "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida" gi 5124 –sonli farmoni va qarorlari, shuningdek,

¹// <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/cancer>

² // <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28263020/>

ushbu sohada qabul qilingan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rib chiqilgan vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qiladi³.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Aktinik keratozning klinik-epidemiologik xususiyatlari, kasallikning patogenetik jihatlari, tashxisot va davolash masalalariga qaratilgan tadqiqotlar dunyoning turli ixtisoslashtirilgan yirik dermatologik va onkologik markazlarida olib borildi. Jumladan, Koreya Seul Universiteti, MVITKI – Moskva viloyat ilmiy-tadqiqot klinik instituti (Rossiya Federatsiya), Hospital das Clinicas da Faculdade de Medicina da Universidade de Sao Paulo, SP, Brazil, Massachusetts General Hospital (Boston, USA), Department of Pathology, Stanford University (USA), Clinica Dermatologica, Policlinico di Modena, Via del Pozzo (Modena, Italy), Akerman dermatopatologiyasi, Nyu-York (AQSH), Anqara universiteti tibbiyot fakulteti dermatopatologiya bo'limlari (Turkiya), Departments of Dermatology, Anatomy and Pathology, Fukui Medical University (Yaponiya), Basel, (Switzerland).

Oxirgi 10 yilda AK dan kasallanishning keskin o'sishi, hatto Osiyo mintaqasida ham (Seul, Koreya) aniqlandi. YaHS transformatsiyaga olib keluvchi asosiy muammo sifatida p53 geni mutatsiyasi ko'rsatildi. Shu bilan birga, mualliflar YaHS va AK turli bosqichlaridagi bir xil holat deb hisoblaydi (MVITKI, RF). Yana ko'rsatilishicha, AK rivojlanishida YaHSga transformatsiyasi yagona yo'l hisoblanmaydi va bunda spontan regress kutilishi mumkin (SP, Brazil), shunday ekan, ayrim mualliflar yangi termini taklif etishdi - keratinotsitar intraepidermal neoplaziya yoki quyoshli keratotik intraepidermal yassi hujayrali karsinoma (Massachusetts General Hospital, Boston, USA).

Yana boshqalari (David S Cassarino Department of Pathology, Stanford University, Palo Alto, USA) yomon sifatli potentsialga bog'liqlikda YaHSni toifalarga ajratishni hamda aktinik keratozni uning tasnifiga moslikda birinchi guruhga (past potentsial) kiritishni taklif qiladi.

Shu bilan bir vaqtda, Ackerman «avvalgi xususiyatlarini yo'qotish», «transformatsiya» terminlari AK ga nisbatan qo'llanilgan bo'lishi mumkin emasligini, yoki u transformatsiya qilinishi mumkin emasligini tasdiqlaydi, chunki u o'zini asl holatiga qaytara olmaydi (Dermatopatologiya Akermana, Nyu-York (AQSH). Shunday qilib, AK konsensus prognoziga nisbatan qarama qarshi ma'lumotlarga qaramay, terapiyaning adekvat taktikasini ishlab chiqish uchun

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 7-dekabrda 5590-son Farmoni.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi

<https://www.medicaljournals.se/acta/content/abstract/10.2340/00015555-2854>, www.sechenov.ru,
<https://www.hc.fm.usp.br/hc/portal/>, https://www.kanazawa-med.ac.jp/English/public_html/,
<https://www.massgeneral.org/>, <https://med.stanford.edu/pathology.html>, <https://www.aou.mo.it/Dermatologia>,
<https://www.dermopathdiagnostics.com/our-dermatopathologists/ackerman-academy-of-dermatopathology/>,
<http://www.medicine.ankara.edu.tr/en/academic-faculty/>, <https://www.med.u-fukui.ac.jp/eng/units-departments/>,
<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27904857/>, <http://www.pubmed> va b.

displaziyani erta aniqlash va keratinotsitlarning yuqori proliferatsion faolligini oshirish zarur. Mualliflar ushbu yo‘nalishda ko‘rishning (vizualizatsiya) turli metodlari, birinchi navbatda dermatoskopiya muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrga qo‘shiladi. Tashxisotning istiqbolli metodlari optik kogerent tomografiya va konfokal mikroskopiya (Modena, Italy) hisoblanadi. Tadqiqot ushbu metodlarining asosiy qimmat AK pigmentlangan shakllari yomon sifatli lentigo, teri holati buzilgan keratoz va boshqalarni o‘z ichiga olgan terining boshqa pigmentli shikastlangan shakllari bilan qiyosiy (differensial) diagnostikasida alohida ahamiyatga ega (Anqara universiteti tibbiyot fakulteti dermatopatologiya bo‘limlari (Turkiya)). AK qayta paydo bo‘lishining erta markerlarini izlash maqsadida AK patogenezing turli jihatlarini yaxshi tushunish uchun IGK tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. H. Ishida va hammualliflari (Yaponiya) Bouen kasalligi, aktinik keratoz va YaHS ga chalingan bemorlar hamda sog‘lom kishilar teri to‘qimasi DNK nostabillik darajasini o‘rganib, Bouen kasalligida bazal hujayralar normada bo‘lgan, AK hujayralari esa shikastlangan tuzilmaga ega ekanligini aniqlashdi. Mazkur holat hujayralarning elektron mikroskopiyasi bilan tasdiqlangan, hujayralar AK da shikastlangan normal morfologiya va bazal membranaga ega edi. Keyinchalik, turli tadqiqotchilar tomonidan kasallik noxush kechishining erta markerlarini aniqlashga urindilar. (Buechner, S) AK ning ayrim shikastlanishlarida T-kadgerin yo‘qotilishini ko‘rsatadi, bu agressiv YaHS (Erika C. V. de Oliveira, Braziliya) da AK potensial transformatsiyasini ko‘rsatishi mumkin. Yana 1- mutsinning paydo bo‘lishi epitelii displaziyasi ma‘lum og‘irlik ko‘rsatkichlari va KIN I bilan nima bo‘lishidan qat‘iy nazar, KIN III sezilarli yuqori bo‘lgan uning ekspressiyasi sifatida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar ham mavjud (Enrique Arciniegas, Caracas, República Bolivariana de Venezuela, 2015).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aktinik keratoz muammosi dunyoda katta qiziqishlarga sabab bo‘ldi. Ilgari kasallik yuqori insolyatsiya va terining yorqin fototipli aholisi ustun mamlakatlarda, ya‘ni Yevropa aholisi, Shimoliy Amerika va Avstraliyada keng tarqalgan deb hisoblangan. Biroq, ayrim olimlar so‘nggi vaqtlarda Osiyo populyatsiyasi (Koreya, Yaponiya) aholisi orasida aktinik keratozning keskin oshgani to‘g‘risida ma‘lumot beradi. AK ning asosiy muammosi YaHS da uning transformatsiya ehtimoli hisoblanib, turli mualliflar tomonidan yiliga bir shikastlanish 0,5 % dan 20% gacha baholanadi. AK kelib chiqishi, rivojlanish mexanizmlari, YaHS natijalari va o‘xshashliklari masalasidagi bahs-munozaralarga qaramay, kasallikni erta tashxislash, keratinotsitlar displaziyasini aniqlash, epidermis hujayralari proliferatsiyasiga olib keluvchi DNK shikastlanish vaqtini aniqlash dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu holatlarni erta tashxislash metodlariga displaziya belgilarini erta aniqlashga mo‘ljallangan patomorfologik va IGK-tekshiruv, shuningdek, IGK ning o‘ziga xos markerlarini, ya‘ni r53, T-kadgerin, PCNA va boshqalarni aniqlash kiradi. Teri biopsiyasi yordamida aktinik keratozni tashxislash usullari navbatdagi gistologik tadqiqotlarda yoritib berildi (Andrea Combalia, Cristina Carrera/Squamous Cell Carcinoma). Biopstatda IGK proliferatsiya hujayralari va proliferatsiya indeksini aniqlashga asoslangan in situ saratoni va aktinik keratozni qiyosiy (differensial) diagnostika metodi mavjud, biroq ular yuqori diagnostik qimmatga ega bo‘lib, ularning qimmat narxdaligi va maxsus o‘qitilgan xodimlarga ehtiyoji borligi

sababli amaliyotda cheklangan holda qo'llanadi. Undan tashqari, aktinik keratozning ayrim gistologik turlarida proliferativ faollik yetarlicha yuqori, aktinik keratoz proliferatsiyasining indeksi esa in situ saratonidan ishonchli farq qilmaydi. Aktinik keratozning klinik, anamnestik, katamnestik tashxisot usullari va invaziv bo'lmagan tashxisot ma'lumotlari mavjud. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, aktinik keratozning klinik tashxisida o'ziga xos belgilar va mezonlar mavjud emas, bu terining yassi hujayrali saratonida aktinik keratozning potensial o'zgarishi va tashxis jarayonining uzoqlashishiga olib keladi. Dumaloq yoki oval shaklidagi teri parda yuzasining sezilmas darajada to'kilishi bilan eritematoz dog'larning o'ziga xos bo'lmagan klinik belgilariga asoslangan ko'plab surunkali dermatozlarning (psoriaz, qizil yugirik, seboreyali dermatit, kontakt dermatit) klinik belgilari noto'g'ri tashxis qo'yish ehtimoliga ega bo'lishi mumkin.

Dinamikada bemorlarni ko'p marta va tez-tez kuzatish imkoniyati bilan yuqori diagnostik ahamiyatga ega, tekshiruvning noinvaziv metodlarini o'z ichiga olgan tashxisotning algoritmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi, bu AK tashxis jarayonini optimallashtirish, uning kechishini bashorat qilish va kasallikni davolashning adekvat taktikasini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ilmiy-tekshirish ishlari rejasi doirasida, "Aholi salomatligi, yashash muhitini o'rganish, xavf omillarini aniqlash va Farg'ona vodiysi aholisining turli guruhlar hayot sifatini yaxshilash bo'yicha donozologik tadbirlar kompleksini ishlab chiqish" № 012000258 mavzusida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi: Aktinik keratoz turli shakllarining klinik-morfologik, dermatoskopik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini o'rganish hamda terining yassi hujayrali saratoniga o'tishning erta belgilarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

aktinik keratozning turli shakllarini klinik ko'rinishlari bilan birga, eng ahamiyatli klinik markerlarni aniqlash xususiyatini o'rganish;

aktinik keratoz bilan kasallangan bemorlarda kasallikning klinik va morfologik belgilarining o'zaro bog'liqlik xarakterini aniqlash;

aktinik keratozni turli shakllarining dermatoskopik ko'rinishini o'ranish;

terining yassi hujayrali saratoniga o'tuvchi dermatoskopik belgilarni aniqlash;

aktinik keratozni turli shakllari kuzatilgan bemorlarda CD4, CD8, PCNA va p53 markerlarining diagnostik ahamiyatli darajasini aniqlash;

aktinik keratozning turli bosqichlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash bo'yicha matematik model izlash va uni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti bo'lib, Toshkent shahar tumanlararo 2, 8-teri tanosil dispanserlari, shuningdek, «Gregory Derm» MCHJ xususiy klinikasida ambulator sharoitida tekshirilgan, aktinik keratozning turli shakllari kuzatilgan 90 nafar bemorlar hisoblandi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, aktinik keratozga gumon qilingan, ixtisoslashtirilgan tibbiy teri-tanosil klinikasi shifokoriga murojaat qilgan bemorlarni gistologik va immunogistokimyoviy tekshirish uchun olingan teri biopatlari, dermatoskopik belgilar, kasallik tarixlari xizmat qildi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy ish qiyosiy klinik-morfologik, dermatoskopik va immunogistokimyoviy tekshiruv modellari asosida o‘tkazildi. Har qaysi aniq holatda mezonlar, simptomlar, belgilar, hamda tadqiqotning parametrik va noparametrik statistik metodlaridan foydalanib olingan natijalar hisoblab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aktinik keratozning turli shakllariga chalingan bemorlarda klinik, dermatoskopik, patogistologik va teri bioptatlarini immunogistokimyoviy tekshirish ma’lumotlarining kompleks tahlil natijalari o’ziga hosligi isbotlangan;

aktinik keratozda follikullar bilan bog‘liq va qon tomir patternning belgilari orasida prognostik jihatdan salbiy dermoskopik belgilar isbotlangan;

aktinik keratozda aniqlangan dermoskopik belgilar majmuasini tahlil qilish har bir belgining diagnostik va prognostik ahamiyatini tizimlashtirish AKning yassi hujayrali teri saratoniga erta o’rishni aniqlash bilan isbotlangan;

ishlab chiqilgan matematik model asosida aktinik keratozning turli bosqichlari o’rtasida bog‘liqlik mavjudligi isbotlangan;

aktinik keratozning turli shakllariga chalingan bemorlar bioptatida CD4 markerining keskin ekspressiyasi va sitotoksik CD8 limfotsitlarning qisman ifodalanishi AK patogenezining immun javobida nuqson mavjudligi bilan isbotlangan;

aktinik keratozning 2-3 bosqichi bo‘lgan bemorlarda immunogistokimyoviy PCNA va p53 markerlari ekspressiyasining yuqori darajada ifodalanishi yassi hujayrali karsinomaga o‘tishning erta namoyon bo‘ladigan prognostik belgilar sifatida hizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aktinik keratozning asosiy klinik shakllari, kasallikning klinik belgilari va ifodalanish majmuasi, kasallik tashxisini yengillashtiruvchi uning tahlili aniqlandi;

dermatoskopik tadqiqotdan olingan natijalar amaliyot shifokorlariga kasallikni tashxis qilishda yaxshi mo‘ljallashni va aktinik keratozning noxush kechishini aniqlashga imkon beradi;

klinik-morfologik, dermatoskopik va immunogistokimyoviy ma’lumotlarni kompleks baholash aktinik keratoz tashxisot algoritmini aniqlashga imkon beradi;

PCNA va p53 biomarkerlarini klinik – morfologik va dermatoskopik ma’lumotlar bilan bir qatorda aniqlash terining yassi hujayrali saratoniga aylanishini erta bosqichlarda aniqlashni osonlashtiradi.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy yondashuv va metodlar, uslubiy jihatdan to‘g‘ri o‘tkazilgan tadqiqotlar, bemorlar sonining yetarli ekanligi, tadqiqotda zamonaviy, bir-birini to‘ldiradigan klinik, dermatoskopik, patomorfologik, matematik va statistik metodlar, shuningdek, xulosada vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan natijalarni mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar ma’lumotlari bilan taqqoslashga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aktinik keratoz rivojlanishining patogenetik mexanizmi, uning obligat saratonoldi klinik shaklini aniqlash bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlardan iborat. Dinamik dermatoskopik kuzatuv ma'lumotlari erta bosqichlarda aktinik keratoz tashxisini o'zgartirish, bosqichini, shuningdek, kasallik rivojlanishini aniqlashga imkon beradi. Klinik - morfologik va dermatoskopik simptomlar bilan bir qatorda PCNA va p53 IGK-biomarkerlari aniqlandi, ular erta bosqichlarda yassi hujayralari teri saratonida kasallikning avj olishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati AK erta tashxisoti, kasallik kechishini bashorat qilish metodi bo'yicha algoritm ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ushbu bemorlarni parvarish qilish taktikasini adekvat tanlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2023 yil 28 noyabrdagi 01-02/d-x-06 Ekspert kengashi xulosasiga ko'ra (ilmiy yangiliklarni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligiga Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2023 yil 9 noyabrdagi 01-14-757-sonli xat yuborilgan):

birinchi ilmiy yangilik: aktinik keratozning turli shakllariga chalingan bemorlarda klinik, dermatoskopik, patogistologik va teri biopatlarni immunogistokimyoviy tekshirish ma'lumotlarining kompleks tahlil natijalari o'ziga hosligi isbotlangan va Toshkent shahar 2-tumanlararo teri-tanosil dispanseri bo'yicha 09.08.2023 yildagi 281-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Farg'ona viloyat hududiy filiali bo'yicha 03.11.2023 yildagi №38 buyruq bo'yicha klinik amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: AKning erta tashxisoti uchun taqdim etilgan usul tashxisot jarayonini optimallashtirish va kasallikning klinik-anamnestik, dermatoskopik va morfologik xususiyatlarini sinchkovlik bilan qilingan tahliliga asoslangan davolash taktikasini tanlashga, bemorlarning mehnatga qobiliyatsizlik vaqtini qisqartirib, tashxisotda invaziv usullarini zarururiyatini minimallashtirishga imkon beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: bemorlarning dinamik monitoringi paytida invaziv diagnostika usullariga ko'rsatmalarni kamaytirish orqali aktinik keratozning turli shakllari bo'lgan bemorlarni tashxislash va davolash taktikasi optimallashtirildi, bu esa diagnostik jarayon narxini 35% ga kamaytirdi va 80 bemorga yiliga 15 680 000 so'm xarajatlarni tashkil qilgan. **Xulosa:** aktinik keratoz bilan kasallangan bemorlarni diagnostikasi va kuzatuv taktikasi bo'yicha ishlab chiqilgan algoritm har bir bemor uchun 196 000 so'mga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni iqtisod qilish imkonini bergan.

ikkinchi ilmiy yangilik: aktinik keratozda follikullar bilan bog'liq va qon tomir patterning belgilari orasida prognostik jihatdan salbiy dermoskopik belgilar isbotlangan va Toshkent shahar 2- tumanlararo teri- tanosil dispanseri bo'yicha 09.08.2023 yildagi 281-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Farg'ona viloyat hududiy filiali bo'yicha 03.11.2023 yildagi №38 buyruq bo'yicha klinik amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: kogort guruhda AK bemorlarining prognostik noxush dermatoskopik belgilarini aniqlash qo'shimcha invaziv hamda qimmat tashxisot usullarini o'tkazish, shuningdek,

AKni davolashning agressiv, destruktiv usullarini o'tkazish uchun ko'rsatmani ajratishga imkon beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: AK uchun invaziv diagnostika usullariga ko'rsatmalar doirasini belgilashga muvaffaq bo'lindi va shu bilan byudjet va byudjetdan tashqari moddiy xarajatlarini 50%ga kamaytirdi, bu esa yiliga bitta muassasada 40 bemor uchun 7 840 000 so'mni tashkil qilgan. **Xulosa:** AK diagnostikasi jarayonini optimallashtirish har bir bemor uchun byudjet va byudjetdan tashqari 196 000 so'm mablag'larni iqtisod qilish imkonini bergan.

uchinchi ilmiy yangilik: aktinik keratozda aniqlangan dermoskopik belgilar majmuasini tahlil qilish har bir belgining diagnostik va prognostik ahamiyatini tizimlashtirish AKning yassi hujayrali teri saratoniga erta o'tishini aniqlash bilan isbotlangan va Toshkent shahar 2-tumanlararo teri- tanosil dispanseri bo'yicha 09.08.2023 yildagi 281-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Farg'ona viloyat hududiy filiali bo'yicha 03.11.2023 yildagi №38 buyruq bo'yicha klinik amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: dermatoskopik tekshiruv ma'lumotlarini umumiy tizimlashtirish AK bilan zararlanganda patologik o'choqda davom etayotgan patomorfologik jarayonlarning mohiyatini samarali aniqlash imkonini yaratadi, bu esa bemorlarning vaqtinchalik nogironligiga va hayot sifatining pasayishiga olib keluvchi invaziv tekshirish usullarini qo'llashni minimallashtirish imkonini beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: AK bilan hastalangan bemorlarni dermoskopik belgilar to'plamini hisobga olgan holda tekshirish, AKning yassi hujayrali teri saratoniga erta transformatsiyalanishni aniqlashga imkon beradi, bu bemorlarni onkodermatologlarga o'z vaqtida yo'naltirishni asoslaydi, qimmat invaziv diagnostika usullariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirdi va yiliga bitta muassasada 80 bemorga 15 680 000 so'm ortiqcha sarf harajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** AKning diagnostikasi jarayonini optimallashtirish har bir bemor uchun byudjet va byudjetdan tashqari 196 000 so'm mablag'larni iqtisod qilish imkonini bergan.

to'rtinchi ilmiy yangilik: ishlab chiqilgan matematik model asosida aktinik keratozning turli bosqichlari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi isbotlangan va DVvaK RIIATM Qoraqolpog'iston Respublikasi hududiy filiali bo'yicha 08.08.2023 yildagi №25-A, Toshkent shahar 2- tumanlararo teri- tanosil dispanseri bo'yicha 09.08.2023 yildagi 281-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Toshkent shahar hududiy filiali bo'yicha 30.08.2023 yildagi №277 buyruq, Toshkent shahar 8-tumanlararo teri-tanosil dispanseri bo'yicha 30.09.2023 yildagi 77-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Farg'ona viloyat hududiy filiali bo'yicha 03.11.2023 yildagi №38 buyruq bo'yicha klinik amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: AKni bemorlarda kechishini prognozlash va diagnostik tadbirlar algoritmi matematik model asosida ishlab chiqildi, bu esa AKli bemorlarni dinamik kuzatishda optimal olib borish taktikasini tanlash va zarur foydalaniladigan invaziv diagnostikaning usullarini kamaytirish imkonini beradi. **Ilmiy ahamiyatning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: AK diagnostikasi va uning kechishi prognozlash asosida 80 nafar bemordan 28 nafarida zarur diagnostika muolajalari

hajmi 35% kamaytirilib, yiliga 5 488 000 so‘m ortiqcha sarf harajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** AKning diagnostika jarayonini optimallashtirish har bir bemor uchun byudjet va byudjetdan tashqari 196 000 so'm mablag'larni iqtisod qilish imkonini bergan.

beshinchi ilmiy yangilik: aktinik keratozning turli shakllariga chalingan bemorlar biopstatida CD4 markerining keskin ekspressiyasi va sitotoksik CD8 limfotsitlarning qisman ifodalanishi AK patogenezining immun javobida nuqson mavjudligi bilan isbotlangan va DVvaK RIIATM Qoraqolpog'iston Respublikasi hududiy filiali bo'yicha 08.08.2023 yildagi №25-A, Toshkent shahar 2- tumanlararo teri- tanosil dispanseri bo'yicha 09.08.2023 yildagi 281-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Toshkent shahar hududiy filiali bo'yicha 30.08.2023 yildagi №277 buyruq, Toshkent shahar 8- tumanlararo teri- tanosil dispanseri bo'yicha 30.09.2023 yildagi 77-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Farg'ona viloyat hududiy filiali bo'yicha 03.11.2023 yildagi №38 buyruq bo'yicha klinik amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: bemorlar biopstatlarida sitotoksik CD8 limfotsitlarining sezilmas darajadagi ekspressiyasida kuzatiluvchi CD4 markerining keskin ifodalangan ekspressiyasi AKning ayrim shakllarida bemorlarga mahalliy arzon, qulay tashqi davolash usulini qo'llashni asoslaydi va bemorlar mehnat qobiliyatini, hayot sifatini saqlab qoladi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: AK ochoqlarini agressiv destruktiv usullar bilan davalashga ko'rsatmalar sezilarli darajada qisqartirildi, bu moddiy xarajatlarni 50% gacha har bir muassasaga yiliga 40 nafar bemor uchun 6 000 000 so'mgacha ortiqcha sarf harajatlarni iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** AK bilan hastalangan bemorlarni ambulator konservativ davolash uchun bemorlarni aniqlash imkonini beruvchi CD4 va CD8 IGK-markerlaridan foydalanishning umumiy iqtisodiy samaradorligi har bir bemorga 150 000 so‘m byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni iqtisod qilish imkonini bergan.

oltinchi ilmiy yangilik: aktinik keratozning 2-3 bosqichi bo'lgan bemorlarda immunogistokimyoviy PCNA va p53 markerlari ekspressiyasining yuqori darajada ifodalanishi yassi hujayrali karsinomaga o'tishning erta namoyon bo'ladigan prognostik belgilar sifatida hizmat qilishi isbotlangan va DVvaK RIIATM Qoraqolpog'iston Respublikasi hududiy filiali bo'yicha 08.08.2023 yildagi №25-A, Toshkent shahar 2- tumanlararo teri tanosil dispanseri bo'yicha 09.08.2023 yildagi 281-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Toshkent shahar hududiy filiali bo'yicha 30.08.2023 yildagi №277 buyruq, Toshkent shahar 8-tumanlararo teri-tanosil dispanseri bo'yicha 30.09.2023 yildagi 77-sonli buyruq, DVvaK RIIATM Farg'ona viloyat hududiy filiali bo'yicha 03.11.2023 yildagi №38 buyruq bo'yicha klinik amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: IGK-markerlar ekspressiyasining yuqori darajada ifodalanishi aktinik keratozning bemorlarda yassi hujayrali karsinomaga o'tishning erta tashhislashga imkon beradi, ekspressiyasining mavjud emasligi dermatolog shifokorlar uchun AKni davolashning terapevtik taktikasini asosladi, bu esa onkologiya muassasalariga murojatni va bemorlarning emotsional stress yuklamasini kamaytirdi.

Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: AKda yangi diagnostik usulni qo'llanishi onkolog mutaxassislarni qo'shimcha jalb qilish zaruratini 4 baravariga kamaytirdi va yiliga 20 ta bemorga 1 480 000 so'mgacha sarf harajatlarini iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** immunogistokimyoviy PCNA va p53 markerlarini AKni yassi hujayrali karsinomaga o'tish jarayonini tashhishlashda qo'llanishi bir nafar bemor uchun 74 000 so'm byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni iqtisod qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda (konferensiyalarda) muhokama qilingan, ularning 4 tasi xalqaro va 4 tasi respublika anjumanlari.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 28 ta ilmiy ish chop etildi, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, bitta monografiya, ixtiroga 1 ta patent, 3 ta xalqaro va 9 ta respublika tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 8 bob, xotima, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va 15 ta ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 199 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya ishining dolzarbligi v zarurati asoslandi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti shakllantirildi, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatildi, ilmiy yangilik va ishning amaliy natijalari izohlandi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berildi, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi yoritildi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar berildi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi (**Adabiyotlar sharhi**) 4 bo'limdan: aktinik keratoz haqida umumiy tushuncha; kasallik epidemiologiyasi; tasnifi; kasallik tashxisotida mumkin bo'lgan immunogistokimyoviy tadqiqot va aktinik keratoz gistopatologiyasi; konfokal mikroskopiya afzalliklarini o'z ichiga olgan kasallik vizualizatsiyasining umumiy metodlari, dermatoskopik xususiyatlari, klinik ko'rinishi, patogenez mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab olgan kasallik etiopatogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlardan tashkil topgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bo'limida (**Tadqiqot materiallari va metodlari**) tadqiqot materialini tashkil qilgan bemorlarning klinik tavsifi yoritilgan va mazkur ish jarayonida foydalanilgan metodlar to'g'risida ma'lumot beril gan. Tadqiqotga 45-80 yoshdagi (o'rtacha yoshi 63,5 yosh) aktinik keratozning turli shakllari kuzatilgan 90 nafar bemor kiritildi. Klinik diagnostika tananing quyosh nuri tushishiga qulay ochiq joylarda eritema, giperkeratoz, teri po'stining to'kilishi, pigmentatsiya va atrofiya singari ko'rinib, namoyon bo'lishlarning tekshirilishiga asoslanadi. Giperkeratoz hajmiga moslikda olingan klinik natijalar majmui bemorlarni 4 guruhga bo'lishga imkon berdi: birinchi guruh – mahalliy eritema va teri yuzasi po'stining yengil to'kilishi (0 bosqich) kuzatilgan 30 nafar bemor, ikkinchi

guruhga teri yuzasi ko‘proq po‘stining to‘kilishi bilan klinik eritema kuzatilgan 25 nafar bemor, uchinchi guruhga eritema fonida (2-bosqich) teri sathidan yuqoriroq ko‘tarilish bilan giperkeratozga chalingan 20 nafar bemor va to‘rtinchi guruhga yuzasida skalpel bilan qirib tashlanganda ajralmaydigan giperkeratoz va eritema kuzatilgan (3-bosqich) 15 nafar bemor kiritildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida guruhlar taqsimlanishi normada ekanligi tekshirildi. Tekshirilayotgan guruhlarda yosh hajmi va ahamiyatligi Shapiro — Uilka mezonidan foydalanib, ko‘rsatilgan guruhlar normada taqsimlanmaganligiga bog‘liqlikda baholandi. Guruhlarda tekshirilgan bemorlarning statistik ahamiyatligi taqqoslanganda $p < 0,5$ ni tashkil qildi.

Shikastlanish o‘choqlari dermatoskopiyasi DERMLITE DL3N apparati va Samsung raqamli kamera yordamida barcha 90 nafar bemorda bajarildi. Dermatoskop yordamida o‘n barobar (10x) kattalashtirilgan shikastlanish o‘choqlaridagi dermatoskopik o‘zgarishlar kompleks baholandi.

Patomorfologik tekshiruv. Klinik -patologik korrelyatsiya uchun hamma 90 holatda 4 mm diametr pancherli punch-metodida teri biopsiyasi o‘tkazildi. Kesmalar gematoksilin va eozin, shuningdek, Van-Gizon bo‘yicha gematoksilin va pikrofuksin bilan bo‘yaladi. Tayyorlangan material 4x, 10x, 20x, 40x, 100x obyektlardan foydalanib, o‘tuvchi Carl Zeiss (Germaniya) nurli mikroskopda tashxislandi va baholandi. Gistologik preparatni baholashda epidermis va dermadagi o‘zgarishlarga e‘tibor qaratildi. Displaziya darajasi va ifodalanishi C. Cockerell va J. Wharton tasnifiga mos holda aniqlandi, bu yerda KIN 1 (keratinocytic intraepidermal dysplasia) – yengil daraja, KIN 2 - o‘rtacha, KIN 3 – og‘ir daraja, deb ko‘rsatildi.

Immunogistokimyoviy tekshiruv. Ushbu tekshiruv 50 nafar AK bemorlari gistologik to‘qima namunalari o‘tkazildi. Immunogistokimyoviy (IGK) reaksiya chizma bo‘yicha bosqichma bosqich ishlab chiqaruvchi firma taqdim etgan parafin kesmalarida bajarildi. Tadqiqot natijalarini baholashda IGK-reaksiya antigenlarining (yadroviy, sitoplazmatik yoki membranali) epidermis va dermada joylashgan hujayra tuzilishidagi och va to‘q jigar rangli granula turida taqsimlanishini ijobiy deb hisoblashdi. Birlamchi antitanalardan foydalanmasdan nazorat tekshiruvini o‘tkazildi. CD4, CD8, p53, PCNA markerlarining ifodalanish ekspressiyasi va darajasi $\times 400$ ga kattalashtirilgan to‘rtta ko‘rish maydonida hujayralar sonini hisoblab chiqish bilan yarim miqdoriy metoddan baholandi. Kerakli antigen reaksiya 1-50 hujayralarda bo‘yalgan granular mavjud bo‘lganda kuchsiz «+», 50-100 ta hujayrada o‘rtacha va 100 va undan ko‘proq ijobiy bo‘yalgan hujayralarda ifodalangan deb baholandi. Vizualizatsiya Fast Red xromogenli Real («Dako», Gamburg, Germaniya) bo‘yash komponenti tomonidan amalga oshirildi.

Ma’lumotlarni statistik qayta ishlash SPSS.21.0 dasturidan foydalanib, amalga oshirildi. Olingan variatsiya qatorlarini tekshirish Shapiro - Uilka metodida normal taqsimlanishga mos tarzda bajarildi. Variatsiya qatorlari Manna- Uitni mezoniga asoslanib, juftlab taqqoslandi. Tekshirilgan guruhlarda ko‘rsatilgan parametrlar bo‘yicha korrelyatsiya Spirmen koeffitsientidan foydalanib, baholandi. $r < 0,5$ yig‘indisi statistik ahamiyatli, deb topildi.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Aktinik keratoz turli shakllari bilan kasallangan bemorlarning klinik tavsifi**» bobida AK shakllariga bog‘liqlikda bemorlarda asosiy klinik belgilar tahlil qilindi va o‘rganildi. 50 nafar bemorda AK ning yakka o‘chog‘i (55,5%), qolgan 40 bemorda esa AKning ko‘plab o‘choqlari (44%) aniqlandi. Umumiy qiyinchilikda 170 ta shikastlanish o‘choqlari aniqlandi.

1-jadval

AK turli shakllari klinik belgilarining ifodalanganligi va taqqoslanishi

Klinik mezonlar	Aktinik keratozning klinik shakllari (n=170)					
	keratotik (n=60)	Atrofik (n=5)	Teri shoxi (n=5)	eritematoz (n=80)	Pigment lashgan (n=15)	lixenoid (n=5)
Eritema	60/(+)	5/(+)	5/(+++)	80/(+++)	15/(-)	5/(+)
Pigmentatsiya	20/(++)	5/(+)	5/(-)	15/(+)	15/(+++)	5/(-)
Atrofiya	60/(-)	5/(+++)	5/(-)	80/(-)	2/(+)	5/(-)
Qipiqlanish	60/(+++)	5/(+)	5/(++)	80/(++)	5/(+)	5/(+)
Giperkeratoz	50/(+++)	5/(-)	5/(++)	80/(+)	3/(+)	5/(+)
Terining qichishish	25/(+)	5/(+)	5/(+)	29/(+)	4/(+)	5/(+)
Yara-chaqalar	60/(-)	5/(-)	5/(-)	80/(-)	15/(-)	5/(+)

Izoh: sanoq — bemorlar soni; maxraj — klinik simptomlar: «+» —kuchsiz ifodalangan belgi, «++» — o‘rtacha ifodalangan; «+++» — keskin ifodalangan.


1-jadvaldan ko‘rinadiki, AK keratotik varianti 170 (35,2%) o‘choqning 60 tasida, atrofik — 170 (3%) o‘choqning 5 tasida, teri shoxi - 170 (3%) o‘choqning 5 tasida, eritematoz - 170 (47%) o‘choqning 80 tasida, pigmentlashgan - 170 (8,8%) o‘choqning 15 tasida va lixenoid - 170 (3%) holatning 5 tasida kuzatildi. Kasallikning barcha bunday shakllarida klinik namoyon bo‘lishi turlicha kuzatildi. Keratotik variantda keskin ifodalangan belgilarga: teri po‘stining tushishi, giperkeratoz kiradi; o‘rtacha ifodalangan belgilar - pigmentatsiya va kuchsiz ifodalangan belgilar – eritema va terining qichishishi hisoblanadi. Atrofik variantda keskin ifodalangan belgilar atrofiya hisoblanadi, u 100% holatda uchraydi. Teri shoxi shaklida namoyon bo‘ladigan kasallik shakli 100% holatda aniq belgi sifatida eritema bilan kuzatildi. O‘rtacha ifodalangan belgilar orasida teri po‘stining to‘kilishi va giperkeratoz 100% holatda aniqlandi. Terining qichishishi kuchsiz ifodalangan belgi sifatida 100% holatda kuzatildi. AK eritematoz shakli barcha holatda keskin ifodalangan eritema bilan namoyon bo‘ldi. Teri po‘stining to‘kilishi ham 100% holatda kuzatildi, ammo u o‘rtacha ifodalangan. Pigmentatsiya, giperkeratoz, terining qichishishi kuchsiz ifodalangan bilan namoyon bo‘ldi. Pigmentatsiyalashgan shakli keskin ifodalangan pigmentatsiya bilan 100% holatda kuzatildi. Atrofiya, teri po‘stining to‘kilishi, giperkeratoz, terining qichishishi singari qolgan belgilar 17 holatdan 2-4 holatda kuchsiz ifodalangan holda uchradi. Yara-chaqalar kasallikning klinik simptomi singari lixenoid shaklida barcha holatda 100% aniqlandi. Shu bilan birga, AK ning ko‘rsatilgan shaklida kuchsiz ifodalangan belgilari eritema (100%), teri po‘stining to‘kilishi (100%), giperkeratoz (100%) va terining qichishishi (100%) hisoblandi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi “**Aktinik keratozning turli shakllari kuzatilgan bemorlar tashxisida dermatoskopik metodlarning ahamiyati**” bobida AK turli shakllari kuzatilgan bemorlarda uchraydigan dermatoskopik belgilar kompleksi

o'rganildi. Barcha belgilar keyingi patomorfoloqik tadqiqotlar natijalari asosida tizimlashtirish maqsadida shartli tarzda uch guruhga bo'lindi: shikastlanish o'chog'idagi tomir o'zgarishlarini tavsiflovchi belgilar (tomir patterni), epidermisning follikulyar qismi o'zgarishlariga bog'liq belgilar (follikulaga assotsiatsiyalangan belgilar) va pigment o'zgarishlar bilan bog'liq belgilar (pigment patterni).

AK ning eritematoz shaklida "tomir patterni" belgilarining ustunligi aniqlandi, ular orasida eritematoz fon (100%), nuqtali tomirlar (94%), qizil yolg'on pigmentli tarmoq (87,5%), tukli follikulalar bilan o'ralgan to'lqin tomirlar yoki to'g'ri yaratilgan pushti-qizil yolg'on pigment tarmog'i (87,5%) singari dermatoskopik belgilar qayd etildi, sal kamroq "kulubnoy patterni" (62,5%), follikulalar o'rtasida fokuslanmagan yirik tomirlar (50%) singari belgilar kuzatildi. Dermatoskopik belgilarning ikkinchi guruhidan turli hajmdagi follikulyar teshiklarga mos, aniq mayda bo'yalgan oq yoki sariq rangdagi teri dog'lari (FTOSD) - 87,5%, follikulyar teshik va o'choq atrofida oq oreol (FTO'AOO) - 62,5% va oq-sariq rangdagi yuzaki keratin qipiq (OSYUKQ) - 50% juda ko'p uchradi, kengaygan soch follikulalarda sarg'ish keratotik tiqmalar (SFSKT) - 37,5% va "naqsh" turidagi tuzilma 50% kamroq kuzatildi.


Eritematoz



1-rasm. AK eritematoz shaklining dermatoskopik belgilari


Pigment patterni kuchsiz tasvirlangan: to'q jigarrang nuqtalar, mayda tomirchalar va jigarrang globulalar 25% bemorda, qolgan belgilar bu guruhda 12,5% dan aniqlandi (1-rasm).

AK keratotik shakli follikulyar apparatning jalb qilish belgilari qon tomir patternlari birikishi bilan tavsiflandi. Demak, eritematoz fon va nuqtali tomirlar barcha bemorlarda kuzatildi (100%), qizil yolg'on pigmentli tarmoq va «qulubnoyli» pattern 67% holatda qayd etildi, follikulalar o'rtasida fokuslanmagan yirik tomirlar 42% bemorda uchradi. 2-guruh belgilari ko'pincha: SFSKT – barcha bemorlarda, FTOSD 67% bemorda, FTO'AOO va naqsh turidagi tuzilma bemorlarning teng yarmida aniqlandi. «Pigment» pattern belgilari ham kuchsiz tasvirlandi (2-rasm).



2-rasm. AK keratotik shaklida dermatoskopik belgilar


AK ning pigmentlashgan shakli pigment patternining ifodalanishi bilan tavsiflanadi. "Tomir" patterni belgilari bemorlarning uchdan birida aniqlanib, juda kuchsiz ifodalangan. Ushbu guruh bemorlarida uchraydigan o'ziga xos simptomlar (100%) giperpigmentlashgan follikulalarning ochilishi (*GPFO*), to'q jigar rangli nuqtalar, mayda tomirlar, globulalar bo'ldi. Kam holatda burchakli yuzaki jigar rangli chiziqlar 66,6%, tuzilishsiz to'q jigar rangli dog'lar har uchinchi bemorda aniqlandi (33%). Ko'proq 2-guruh belgilari: FTOSD va FTO'AOO barcha bemorlarda (100%) qayd etildi, *OSYUKQ* bemorlarning teng yarmida (53%) aniqlandi (3-rasm).



Rasm 3. Pigmentli AK shaklidagi dermatoskopik belgilar

AK atrofik shakli tomir patternining barcha belgilari ko'rsatib berildi. Qizil yolg'on pigmentli tarmoq, follikulalar o'rtasidagi fokuslanmagan yirik qon tomirlar, «qulubnoyli» pattern va nuqtali tomirlar ushbu guruhning barcha


bemorlarida uchradi (100%), kam holatda pushti-qizil yolg'on pigmentli tarmoq, chiziqli qon tomirlar, uzuk-uzuk/ o'rilgan tomirlar (60% dan), eritematoz tuzilishsiz fon, qavs tomirlari 40% bemorda, shikastlanish o'chog'ida tugunli tomirlar 20% bemorda aniqlandi. 2-guruh belgilaridan FTO'AOO (60%), FTOSD va naqsh tuzilmasi 40% eng ko'p uchradi, *OSYUKQ* va *SFSKT* juda kam kuzatildi (20%). *GPOF* barcha bemorlarda uchradi (100%), tuzilishsiz to'q jigarrangli dog'lar 40% bemorda va pigment patternning qolgan belgilari har beshinchi bemorda (20%) yo alohida, yo kompleks tarzda aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. AK ning atrofik shaklida dermatoskopik belgilar

AK ning lixenoid shakli pigment patternlari bilan birgalikda sezilmas follikulalarni bilinmas darajada jalb qilish, aniq ifodalangan qon tomir patternlariga ega. Eritematoz tuzilishsiz fon va qizil yolg'on pigment tarmog'i barcha bemorda (100%) uchradi, follikular o'rtasidagi fokuslanmagan yirik qon tomirlar, "qulupnayli" pattern, nuqtali tomirlar, uzuk-uzuk/ o'rilgan tomirlar 60% bemorda, pushti qizil yolg'on pigment tarmog'i, chiziqli tomirlar 40% bemorda, tugunli tomirlar, qavs tomirlari 20% bemorda aniqlandi. *OSYUKQ* 60% bemorda, *SFSKT* – 40% bemorda qayd etildi. FTOSD va FTO'AOO , shuningdek, naqsh turidagi tuzilma 20% bemorda kuzatildi. Pigment patternlarining barcha belgilari ham uchradi, ammo ular keng tarqalmagan. *GPOF* 40% bemorda, ushbu patternning qolgan belgilari 20% holatda kuzatildi (5-rasm).


Likhenoid



Rasm 5. Lixenoid AK shaklidagi dermatoskopik belgilar


Teri shoxi eritematoz tuzilishsiz fonda va nuqtali qon tomir barcha holatlarda uchradi (100%). Follikulalar o'rtasida fokuslanmagan yirik tomirlar 40% bemorda aniqlandi, "qulubnoyli" patterndan tashqari, qolgan barcha belgilar 20% holatda aniqlandi. Dermatoskopik belgilarning ikkinchi guruhi aniq ifodalangan xarakterga ega bo'lib, *OSYUKQ*, *FTO'AOO*, markaziy tangachalarni o'rab turuvchi shikastlanish o'choq periferiyasi bo'yicha oq pattern har bir bemorda (100%) uchradi, juda kam holatda naqsh turi bo'yicha tuzilma (40%) bemorda aniqlandi, *FTOSD* 20% bemorda kuzatildi. Shu bilan birga, *GPOF* 40% bemorda, to'q jigarrangli nuqta va mayda tomirchalar, jigarrangli globulalar 20% bemorda qayd etildi (6-rasm).

Teri shoxi




6-rasm. AK da teri shoxi turi bo'yicha dermatoskopik belgilar

Dermatoskopik belgilarning kasallik bosqichiga bog'liqlikdagi qiyosiy tahlilida qiziq ma'lumotlar olindi.



Rasmi 7. AK bosqichiga qarab qon tomir naqshining diagnostik ahamiyati

Shunday qilib, “qon tomir patterni”ning dermatoskopik belgilari turli diagnostik ahamiyatga ega. Eritematoz tuzilishsiz fon, nuqtali qon tomir, qizil yolgʻon pigment tarmogʻi singari belgilar kasallikning deyarli barcha bosqichlarida uchradi (7-rasmi). Shu bilan bir vaqtda ushbu patternning boshqa belgilari AK ning koʻproq rivojlangan bosqichlarida kuzatildi, ulardan prognostik rejada foydalangan boʻlishi mumkin.



8-rasmi. AK turli bosqichlarida “qon tomir patterni” belgilarining prognostik ahamiyati

Dissertatsiyaning beshinchi «Aktinik keratozning turli shakllarida terining gistopatologik oʻzgarishlari» bobida barcha 90 nafar bemorda gistologik tekshiruv bilan terining diagnostik biopsiyasi oʻtkazildi. Teri biopatlari natijalar asosida 6 ta gistologik kichik turlarga boʻlindi: gipertrofik ($n=45$), bovenoid ($n=20$), atrofik ($n=15$), lixenoid ($n=5$), proliferativ ($n=3$) va akantolitik ($n=2$).

AK ning gipertrofik shaklida epidermisda quyidagi belgilar kuzatildi: mahalliy giperkeratoz ($n=25/45$, 55,5%), diffuz giperkeratoz ($n=20/45$; 44%), tekis akantoz ($n=25/45$; 55,5%), notekis akantoz ($n=20/45$; 44%), mahalliy gipogranulez ($n=15/45$; 33%), epidermis hujayra displaziyasi (keratinocytic intraepidermal dysplasia - KIN) KIN 2 bosqichda ($n=3/45$; 7%), KIN 3 bosqichda

($n=7/45$; 15,5%), KIN 2 bosqichda bazal qatlam yallig‘lanish limfotsitlari ($n=3/45$; 15,5%), KIN 3 bosqichda ($n=7/45$; 15,5%), KIN 2 bosqichda bazal qatlam atipik keratinotsitlari 45 bemorning 2 nafarida (4,4%), KIN 3 bosqichda ($n=8/45$; 18%), KIN 2 bosqichda turkumli qatlam atipik keratinotsitlari ($n=2/45$; 4,4%), KIN 3 bosqichda ($n=8/45$; 18%), KIN 3 bosqichda patologik mitozlar ($n=10/45$; 22%), KIN 2 bosqichda keratinotsitlar stratifikatsiyasining buzilishi ($n=3/45$; 6,6%), KIN 3 bosqichda ($n=7/45$; 15,5%).

AK guruhi (**bovenoid variant**) soni bo‘yicha ikkinchi gistologik tadqiqot epidermisda quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: mahalliy giperkeratoz ($n = 5/20$; 25%), diffuz giperkeratoz ($n = 15/20$; 75%), tekis akantoz ($n = 5/20$; 25%), notekis akantoz ($n = 15/20$; 75%), mahalliy gipogranulez ($n = 5/20$; 25%), KIN 2 bosqichda epidermis hujayralari displaziyasi ($n = 2/20$; 10%), KIN 3 bosqichda ($n = 8/20$; 40%), KIN 2 bosqichda bazal qatlamda yallig‘lanish limfotsitlari ($n = 5/20$; 25%), KIN 3 bosqichda ($n = 5/20$; 25%), KIN 2 bosqichda atipik keratinotsitlari ($n = 5/20$; 25%), KIN 3 bosqichda ($n = 5/20$; 25%), KIN 2 bosqichda turkumli qavat atipik keratinotsitlari ($n = 2/20$; 10%), KIN 3 bosqichda ($n = 8/20$; 40%), KIN 3 bosqichda patologik mitozlar ($n = 10/20$; 50%) va KIN 2 bosqichda keratinotsitlar stratifikatsiyasining buzilishi ($n = 5/20$; 25%), KIN 3 bosqichda ($n = 5/20$; 25%).

AK ning atrofik variantida epidermisda mahalliy giperkeratoz ($n=5/15$; 33%), quruqshagan qobiq ($n=5/15$; 33%), mahalliy atrofiya ($n=7/15$; 47%), diffuz atrofiya ($n=8/15$; 53%), mahalliy gipogranulez ($n=5/15$; 33%), KIN 3 bosqichda epidermis hujayra displaziyasi ($n=10/10$; 100%), KIN 3 bosqichda bazal qatlamda yallig‘lanish limfotsitlari ($n=10/10$; 100%), KIN 2 bosqichda bazal qatlamda atipik keratinotsitlar ($n=3/10$; 30%), KIN 3 bosqichda ($n=7/10$; 70%), KIN 2 bosqichda terining tashqi qatlamida atipik keratinotsitlar ($n=2/10$; 20%), KIN 3 bosqichda ($n=8/10$; 80%), KIN 3 bosqichda patologik mitozlar ($n=10/10$; 100%) va KIN 3 bosqichda stratifikatsiyaning buzilishi ($n=10/10$; 100%) berilgan.

AK ning **lixenoid variantida epidermisdagi o‘zgarishlar quyidagi** gistopatologik belgilar bilan taqdim etilgan: mahalliy giperkeratoz ($n=3/5$; 60%), quruqshagan qobiq ($n=1/5$; 40%), tekis akantoz ($n=2/5$; 40%), notekis akantoz ($n=4/5$; 40%), mahalliy spongiyoz ($n=5/5$; 100%), KIN 1 bosqichda bazal qatlamda yallig‘lanish limfotsitlari ($n=5/5$; 100%), KIN 2 bosqichda ($n=1/5$; 20%), KIN 2 bosqichda keratinotsitlar stratifikatsiyasining buzilishi ($n=2/5$; 40%), KIN 3 bosqichda ($n=3/5$; 60%), mos holda.

